

## O'ZBEK XALQ MUSIQASIDA BASTAKORLIK VA KOMPOZITORLAR USLUBLARINING SHAKLLANISHI.

**Tursunov Abduraim Ramazanovich**

*Termiz davlat universiteti musiqa talimi kafedrasida mudiri dotsenti.*

**Tursunova Dilbar Abduraimovna**

*Termiz davlat pedagogika instituti 2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalq musiqa ijodiyotining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida yoritilgan. Xalq og'zaki ijodining musiqa san'atida ahamiyati, folklorshunoslikning rivojlanish davri, respublikamiz musiqa hayotida musiqiy bilimlarni to'plash va musiqa ijodkorligi, ya'ni bastakorlikning ilk bosqichlari, maqom ijrochiligi an'analari, ilk musiqa bilim dargohlariga asos solinishi, musiqashunoslik fanlarining tadbiq etilishi, ilk musiqiy nashrlar hamda bugungi kundagi musiqa madaniyatida o'tgan davrdagi xalq musiqa ijodiyotining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik, musiqa madaniyati, qo'shiq, bastakor, sozanda, ijrochi, maqom yo'llari, "Sharq musiqa maktabi", konservatoriya, zamonaviy musiqa.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны этапы становления и развития народной музыки. Значение фольклора в музыкальном искусстве, период развития фольклористики, накопление музыкальных знаний и музыкального творчества в музыкальной жизни нашей республики, т.е. первые этапы сочинения, традиции статусного исполнительства, основание первые музыкальные школы, применение музыковедческих наук, первые нотные издания и значение народной музыки минувшего периода в современной музыкальной культуре.*

**Ключевые слова:** *фольклор, фольклористика, музыкальная культура, песня, композитор, музыкант, исполнитель, статусы, «Школа восточной музыки», консерватория, современная музыка.*

**Annotation:** *This article describes the stages of formation and development of folk music. The significance of folklore in the art of music, the period of development of folkloristics, the accumulation of musical knowledge and musical creativity in the musical life of our republic, i.e. the first stages of composing, the traditions of status performance, the foundation of the first music schools, the application of musicological sciences, the first musical publications and the significance of folk music of the past period in modern musical culture.*

**Key words:** *folklore, folklore, musical culture, song, composer, musician, performer, status, "School of Oriental Music", conservatory, contemporary music.*

**Kirish.** Xalq musiqa ijodiyoti – musiqa san'atining eng qadimgi ildizlaridan bo'lib, har bir xalqning o'tmishidan darak beruvchi, tarixi, madaniyati va an'alarini o'zida ifoda etuvchi bebaho hazinadir. O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq og'zaki ijodi, xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy

musiqa, xalq bastakorlik yo'llari singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keladi. Musiqa boshqa san'at turlariga nisbatan o'zgacha ta'sir kuchiga ega. U insonning axloqiga, hissiyotiga, tuyg'ulariga qaratilgan bo'lib, shular orqali uning ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishida zamin bo'lib xizmat qilgan. Bu san'at o'zining xalqchilligi, g'oyaviyligi va qiziqarli ekanligi bilan bir qatorda xalqning matonati, yengilmas irodasi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, shodiyona, adolat, tinchlik haqidagi tasavvurlarni yorqin namoyon eta oladi. O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga egadir. Musiqa merosidan, Xalq kuy va qo'shiqlaridan ilxom olmagan zamonaviy musiqaning biron bir soxasini topish qiyin. Ommaviy estrada qo'shiqlaridan tortib, yirik xor, simfonik musiqa, opera, balet, musiqali drama janrlarining rivojlanish jarayonini musiqa merosidan ajralmagan holda tassavur etib bo'lmaydi. Musiqa merosimizni, milliy musiqamizni ko'plab etnografik ansanblar keng tashviqot qilish va uni yangi mazmun bilan boyitishda muhim o'rin tutadi. Bu ishda Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Domla Halim Ibodov, Hojixon Boltaev, Madraxim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov va boshqalar katta faoliyat ko'rsatdilar. Bunday xofizlarimiz ijro etgan kuy va qo'shiqlar, maqomlardan tashqari musiqaning boshqa janrlari ya'ni kompozitorlik ijodiga mansub bo'lgan asarlar yo'q edi. 1930- yillardan so'ng musiqamizda yangi janrlar xor, kantata, opera, balet va simfoniya kabi kompozitorlik uslublar paydo bo'la boshladi. Bunda eng avvalo Xalq musiqa merosimizni notada aks ettirish va undan kompozitorlik uslublaridan foydalanishga katta ahamiyat berildi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun Respublikamizning turli shaharlarida bolalar musiqa maktablari, musiqa texnikumlari va xalq konservatoriyalari ochildi. 1928 yil Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqod instituti tashkil topdi. Bu o'quv maskanlarida rus musiqa mutaxassislarining xizmatlari katta bo'ldi. Natijada musiqalarni notaga olish, ansanblar tuzish, zamonaviy janrlarda yangi asarlar yaratish ishlari boshlandi. Ana shu davrlarda Xorazmlik san'atkorlar o'z musiqaviy bilimlarini oshirish maqsadida Toshkent, Samarqand shaharlariga o'qishga keladilar. 1945- yil urushdan nogiron bo'lib qaytgan Abdusharif Otajonov ham zamonaviy Ovro'po nota tizimini, ko'p ovozli musiqa qoidalarini o'rganish ehtiyoji

bilan 1951-yili Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida so'ngra esa Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitsiya bo'yicha o'qib, kelgusida yetuk kompozitor bo'lib yetishdi. U uzoq yillar Urganch shahar M.Harratov nomli musiqa bilim yurtida direktorlik va pedagogik faoliyatini yuritdi. Shuningdek Ogaxiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri direktori va bosh dirijyori lavozimlarida ishladi. Kompozitor Abdusharif Otajonovning ijodi serqirra, uning dilrabo qo'shiq va ashulalari, cholg'u kuylari, orkestr uchun yozgan asarlari, musiqali drama va komediyalari, simfonik va vokal-simfonik asarlari muxlislar qalbidan munosib o'rin olgan. Abdusharif Otajonov ijodiy merosida rang-barang, turli mavzularda yozilgan qo'shiq, xor va orkestr uchun ko'p qismli musiqiy asarlar, musiqali drama va komediyalar muxim o'rin egallaydi. Davlatimiz va Xalqimiz oldidagi xizmatlari uchun bir qancha orden va medallar, faxriy yorliqlar bilan mukofatlangan. Abdusharif Otajonovning o'zbek musiqasi rivojiga qo'shgan hissasini va xayotini, ijodini

o‘rganish Tadqiqot vazifalari O‘zbek musiqasida bastakorlik va kompozitorlik uslublarining shakllanishini o‘rganish, O‘zbekistonda kasbona musiqaning paydo bo‘lish tarixini bilish, kompozitorlar ijodida Xalq musiqasidan foydalanish uslublarini o‘rganish nixoyatda muximdir.

O‘zbek musiqasi tarixida 1920- yillardan keyin musiqamiz ko‘lami yanada kengaydi, yangi shakl va janrlar paydo bo‘la boshladi. Xususan, xor, kantata, syuita, opera, balet va simfoniya kabi kompozitorlik ijodiga mansub asarlar ham yaratila boshlandi. Bu jarayonda Xalq musiqalarimizni notada namoyon qilishga katta ahamiyat berildi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona kabi shaharlarda Xalq konservatoriyalari, musiqa texnikumlari va musiqa maktablari ochildi. 1928-yilda Samarqand shahrida musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil topdi. Bu dargoxlarda milliy kadrlar tayyorlashda rus mutaxasislari, kompozitorlarning hissalarini katta bo‘ldi. Ayniqsa V.A.Uspenskiy, S.N Vasilenko, Ye. Ye. Romonovskaya, N. I. Mironovlarning xizmatlari ulkan edi. Ana shu davrlarda Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burxonov, Muxtor Ashrafiy, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov, Doni Zokirov, Ilyos Akbarov, Sharif Ramazonov kabi milliy kompozitorlar va musiqashunoslar avlodi yetishib chiqdi. Natijada Xalq musiqa merosimizni o‘rganish, notaga yozib to‘plash, etnografik ansanbllar tuzib Xalqimiz orasida ularni keng targ‘ibot qilib, yanada rivojlantirish va shu bilan birga zamonaviy janrlarda yangi asarlar yaratish ishlari avj oldi. Ayniqsa Toshkent Davlat Konservatoriyasi va O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasining ochilishi hamda Toshkent shahar va jumhuriyat viloyatlarida qator musiqali drama teatrlarining tashkil topishi, natijada milliy musiqamiz ko‘lami yanada kengaydi.

O‘ttizinchi yillar oxirida rus kompozitorlari N. Roslovets va F. Tal o‘zbek san’atkorlari yordamida “Paxta”, “Shoxida”, “Gulandom” kabi birinchi o‘zbek baletlarini, M. Ashrafiy va S. Vasilenko esa “Bo‘ron”, R.Glier va T.Sodikovlar “Layli va Majnun” operalarini yaratdilar. Shu yillari o‘zbek musiqa folklori asosida A.Kozlovskiy, va G.Mushel ilk simfonik asarlar yaratdilar. Urush yillari vatanparvarlik va do‘stlik ruhida qator musiqali dramalar, operalar, vokal va simfonik asarlar yaratildi. Urushdan keyingi yillarda milliy uslubga hamohang asarlar ko‘plab yaratildi. O‘zbekiston simfonik orkestrlari “Bahor” raqs ansanbllari tashkil topdi. Bu davrda estrada janri ham keng rivojlandi. Bu janrda O‘zbekiston Xalq artisti Botir Zokirov unitilmas iz qoldirdi. O‘tgan davrlarda bolalar musiqasiga ham e’tibor kuchaydi. Mutavakkil Burxonov, Doni Zokirov, Manas Leviev, Fattoh Nazarov, G‘ofur Qodirov, Sharif Ramazonov, Mardon Nasimov, Yefim Shvarts kabi kompozitorlar qator xush ohang qo‘shiqlar va kantatalar yaratdilar. Sobir Bobaev esa “Yoriltosh” operasini yaratdi. Bugungi kunda kompozitorlarning keksa avlodiga qo‘shilib Nadim Norxo‘jaev, Komil Kenjaev, Avaz Mansurov, Sheramat Yormatov, Muhammad Otajonov, Dilorom Omonullaeva va boshqa kompozitorlar, bolalar hamda yoshlar uchun zamonaviy asarlar yaratmoqdalar.

O‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga Xorazmlik kompozitorlarining keksa avlodlari ham o‘z hissasini qo‘shganlar. O‘sha yillari Raxmon Ollaberganov bir qator spektakllarga musiqa bastaladi. Urush xaqida Vatan xaqidagi qo‘shiqlari, ayniqsa Abdusharif Otajonov yaratgan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasi butun Respublikamizga tanildi.

Sharif Ramozonovning bir qator xor, kantata, vokalsimfonik syuitasi va qo‘shiq-lari xozirgacha o‘z mavqeni yo‘qotmadi. Kompozitor Abdusharif Otajonov 20 dan ziyod musiqali drama va komediyalarga musiqa bastalab el e‘tiborini qozondi. O‘zbek musiqasida bastakorlik va kompozitorlik uslublari haqida gapiradigan bo‘lsak bastakor so‘zining lug‘aviy ma‘nosi bastakor (fors - tojik “Basta” - Boqlov, “kor” ish) mashg‘ulot ma‘nosini bildiradi. Bastakor-monodiya uslubida bir ovozlik turli asarlar asoson qo‘shiq, ashula, cholg‘u kuylar yaratuvchi ijodkordir. Bastakorlar asosan Xalq kuy va qo‘shiq-lariga tayangan xolda yangi asarlar yaratadilar. Bastakorlikning muhim tamoni shundaki, bastakorlar o‘z ijodlarini odatda dastlab nota yozuvida aks ettirmay, balki bevosita o‘z ijrochilik san‘atlari orqali ifoda etadilar. Demak bastakorlar, bir vaqtning o‘zida ham musiqa yaratuvchi ijodkor, ham ijrochi san‘atkorlardir. Xalqimizning sevimli san‘atkorlaridan To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodikov, Komiljon Jabbarov, Muhammadjon Mirzaev, Ganijon Toshmatov, Nabijon Xasanov, Komiljon Otaniyozov singari bastakorlar faoliyati fikrimizga misol bo‘la oladi. Zero ularning har biri mahoratli ijrochi bo‘lishi bilan birga ular ulkan ijodkorlardir.

Cholg‘u kuylari va qo‘shiqchilik, ashula, katta ashula va boshqa ijod soxalari bastakorlik ijodining asosini tashkil etadi. O‘zbek bastakorlari ashula va kuylar yaratish bilan bir qatorda ular kompozitorlik musiqa janrlari musiqali dramalar, syuita, opera va baletlar yaratishda ham kompozitorlar bilan hamkorlik qilganlar. Misol uchun O‘zbekiston Xalq artisti To‘xtasin Jalilov yigirmadan ziyod qo‘shiq ijod etgan hamda bir qator sahna asarlari va musiqali dramalarga kuy bastalagan “Gulsara”, “Toxir va Zuxra”, “Nurxon,” “Ravshan va Zulxumor,” “Alpomish” kabi sahna asarlari shular jumlasidandur. O‘zbek musiqasida kompozitorlik uslublari haqida gapirar ekanmiz kompozitor so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga e‘tiboringizni qaratsak.

Kompozitor (lotincha “kompozitor” - ijodkor) musiqa asarni yaratuvchi shaxsdir. Kompozitorlik asosan Ovro‘po san‘atida shakllangan bo‘lib, kompozitorlar ijodi ko‘pincha opera, simfoniya, oratoriya, balet, sonata, kino musiqasi kabi ko‘p ovozli garmonik musiqa turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bunday musiqalar yaratuvchi ijodkorlar, odatda, konservatoriyada kompozitorlik fakultetida maxsus ta‘lim olgan bo‘ladi va uni “kompozitor” deb nomlashadi. Kompozitorlar ma‘lum bir mavzuni badiiy tasvirlaganidek, Xalq ijodiyoti, ya‘ni folklordan foydalanib, yoki shu folklor materialini o‘zgartmagani holda, uni boyitib, badiiylashtirib beradi. O‘zbek kompozitorlarining ijodi Xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog‘langan. U g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak saviyadagi musiqa asarlari yaratuvchi ijodkordir. Respublikamiz maxalliy professional kompozitorlari 1940-yillardan boshlab yirik musiqa asarlari yarata boshladilar. Kompozitorlarning simfoniya, opera va boshqa asarlari nota yozuvlari orqali klavir yoki partituralarda o‘z aksini topadi.

O‘zbek musiqasi tarixida shunday siymolar borki, ularning betakror xayotiy va ijodiy yo‘li avlodlar uchun so‘nmas quyoshdek. Olloh nazariga tushgan shunday insonlardan biri Abdusharif Otajonovdir. Abdusharif Otajonov serqirra ijod sohibidir. Yirik san‘at va jamoat arbobi, yetuk ijrochi, bastakor, ustoz, dirijyor Abdusharif Otajonov butun umrini, ijodini o‘zbek musiqa san‘atini rivojlantirishga baxshida qilgan inson hisoblanadi. A.Otajonov kompozitorlik faoliyatida professional musiqaning turli janrlarida ijod qilgan serqirra

ijodkordir. Uning kompozitorlik ijodida xilma–xil dramaturgik asarlarning asosi va mohiyatini belgilovchi mavzular, tinchlik va urush, sadoqat va xiyonat, mexru-muruvvat va nafrat, sevgi va razolat, go‘zallik va qo‘pollik, mustaqillik va qullik, jasorat va pastkashlik, bilim va xurofat kabi mavzular to‘laqonli o‘z ifodasini topgan. Abdusharif Otajonov o‘z ijodiy faoliyati davomida 25 - dan ziyod musiqali drama va komediyalarga musiqa bastalagan. Respublikamizning kompozitorlari orasida buncha ko‘p sahna asarlari ijodkorlari uchramaydi. Abdusharif Otajonov bir vaqtning o‘zida kompozitorlik, pedagoglik, tashkilotchilik faoliyatini olib bordi va ko‘plab shogirdlarni yetishtirdi. Bu faoliyatning samarasini M. Harratov nomli musiqa bilim yurtiga direktorlik davridagi hayotga tadbiiq qilingan ishlarni namuna qilib aytishning o‘zi kifoya. Abdusharif Otajonovning shogirdlari Xalq nazariga tushgan, respublikamizda tanilgan yetuk ijrochi, pedagog va kompozitorlar bo‘lib yetishdilar.

**Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak.** Natijada milliy musiqamiz asosan ikki yo‘nalishda – og‘zaki an‘ana va kompozitorlik musiqa ijodi uslubida keng rivojlana boshladi. Shu yillarda tashkil topgan ko‘plab etnografik ansanbllar Xalqimiz orasida milliy musiqamizni keng tashviiqot qilish va uni yangi mavzu bilan boyitishda muhim o‘rin tutadi.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrining arxiv so‘rovnoma- hujjatlari. 1987-1988 yillar.
2. A.Otajonovning farzandlari, shogirdlari bilan o‘tkazilgan shaxsiy suhbatlar, ularning xotiralari.
3. “Xorazm xaqiqati” gazetasida 1960-1980y. chop etilgan teatr, musiqa san‘atiga oid maqolalar.
4. O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi chop etgan kompozitorning portretlari va ularda keltirilgan tarixiy ma’lumotlar.